

TARBIYACHILARNI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDAGI PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISH

Rahmatova Nargiza

Termiz davlat Pedagogika instituti magistranti.

ANNOTATSIYA

Maktabgacha ta'lim tizimida olib borilayotgan yangilanishlar, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda nutqning to'g'ri shakllanganligining ahamiyati va Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutqni rivojlantirish faoliyatini olib borishda tarbiyachining nutq odobi va unga qo'yilgan talablar haqida atroflicha so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: *Maktabgacha ta'lim, nutq, rivojlanish, faoliyat, ravon nutq, vazifalar, talablar, ma'daniyat, diqqat, idrok.*

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'limning maqsadi - bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Shularni hisobga olib, "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3955-sonli qarori¹

hamda "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" tasdiqlandi. Bu qonun hujjatlarida Maktabgacha ta'lim tizimini yaxlit uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-sonli qarori

texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish kabi masalalar o'z ifodasini topgan.¹

Mamlakatimizda olib borilayotgan mazkur siyosat maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan tarbiyachi-pedagoglardan g'oyat katta ma'suliyat hamda o'qitishning yangi texnologiyalaridan keng foydalanishni talab etadi. Shularni hisobga olib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola har tomonlama maktab ta'limiga tayyorlash, ular orasida bola nutqini rivojlantirish masalasi eng asosiylaridan hisoblanadi. Ularning so'z boyligi oshishi ravon gapirishi va o'z fikrini to'lik ifoda etib, aytib bera olishga o'rgatish masalaning dolzarbligini ko'rsatib beradi. Nutq o'stirish metodikasi fani maktabgacha ta'limda bolalarni og'zaki nutqini o'stirish, tengdoshlari va kattalar bilan nutqiy muomala malakalarini shakllantirish orqali nutqda so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish, ya'ni nutq va xulq egasi bo'lish kabi ma'naviy axloqiy sifatlarni, so'zlash odobini egallashni shakllantiradi. Nutq o'stirish metodikasi pedagogik fan sifatida rivojlantiruvchi vazifani bajaradi, ya'ni bolalar nutqini o'stirish orqali ularning nutq a'zolarini anatomik-gimnastik mashq qildirish orqali nutqning ravon tushunarli bo'lishini ta'minlaydi: bolalar tafakkuri, aqliy faoliyatini rivojlantiradi, ularda nutq odobi, ma'naviy barkamollikni shakllantiradi. Chunki yaxshi rivojlangan nutq tushunarli ta'sirchan bo'ladi, bola o'z nutqini tuzatib boradi. Nutqni rivojlantirish nafaqat bolani atrof-olam bilan tanishtirish tomoni, balki umumiy psixik rivojlanish ustuni hisoblanadi. Bola nutqining rivojlanishi umuman shaxsni va shu bilan birga barcha psixik jarayonlarni shakllantirish bilan bog'liqdir.

«...Tilni egallash jarayoni - bu faqat va shunchaki bilimlar, mahorat hamda ko'nikmalarni berish jarayoni emas. Bu eng avvalo tarbiyadir. Qalbni tarbiyalash, aqlni tarbiyalash, fikrlar tuzishni shakllantirish, inson ruhiy qiyofasining eng nozik qirralariga chidam bilan ishlov berishdir» (K.D.Ushinskiy). Bola nutqiy rivojlanishining, bir tomondan, tashqi ta'sirlar bilan belgilanishi, ikkinchi tomondan esa uning to'satdan yuz berishi, "o'z-o'zidan harakatga kelishi" bilan tavsiflanishini tushunish nutq ontogenezi haqidagi zamonaviy tasavvurlarga xos holatdir. Nutqni rivojlantirishning ana shu qonuniyatlari va mexanizmlarini tushunib yetish ularni batafsil ko'rib chiqishni talab qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli qarori

Kattalar bilan bevosita muloqot qilish bola nutqiga katta ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar atrofdagilarga taqlid qilganlari holda nafaqat to'g'ri talaffuz, so'zlarni tog'ri qo'llash, iboralar tuzish sirlarini, balki kattalarda atrofdagi bolalarda uchrab turadigan nutq nomukammalliklarini ham o'zlashtirib oladi. Bolalarning nutq madaniyati pedagogning nutq madaniyatiga bevosita bog'liq bo'ladi.¹

Doimo kichkintoylarning diqqat-e'tibori markazida turadigan va ular bilan muloqot qiladigan tarbiyachining nutqi bolalar uchun ona – tili, nutq madaniyati na'munalarini oladigan asosiy manba hisoblanadi, shuning uchun u nafaqat to'g'ri so'zlashi, ona tilining barcha tovushlarini aniq va tushunarli qilib talaffuz etish balki u muayyan balandlikdagi ovozda bosiqlik bilan so'zlashi, uning nutqi intonatsion jihatdan ifodali, grammatik jihatdan to'g'ri rasmiylashtirilgan, ravon, tushunush uchun oson bo'lishi hamda so'z bilan belgilash to'g'ri va aniq amalga oshirilishi lozim. Tarbiyachining ifodalilik vositalari foydalangan holda o'qigan hikoyasi bolalarda qiziqish uyg'otadi, ularda qayg'urish so'z kuchini his qilish, uning mazmunini anchagacha yodda saqlab qolish imkonini beradi. Biroq o'z nutqining kamchiligini aniqlash har doim ham oson kechmaydi chunki muloqot jarayonida so'zlovchining diqqat e'tibori eng avvalo nutqning shakliga emas balki uning mazmuniga qaratilgan bo'ladi. Bundan tashqari o'z nutqiga nisbatan beparvolik bilan munosabatda bo'lish natijasida ayrim kamchiliklar tilga qattiq o'rnashib qolishi va keyinchalik so'zlovchi uni sezmay qolishi mumkun. Masalan, nutqning shoshqaloqligi, tushunarsizligi, bir ohangdaligi, monotonligi, ovozning kuchliligi, ayrim tovushlar so'zlarni noaniq talaffuz qilish kabi nuqsonlar sezilmasdan qoladi.

Nutqda aniqlangan kamchilik (nomukammalliklar) larni tarbiyachi maxsus daftarga qayt etadi, so'ngra reja ishlab chiqadi va ularni bartaraf etishga doir ishlarni tashkil qiladi. Pedagog-tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o'yinlarda, mashg'ulotlarda, birgalikdagi mehnat faoliyatida va ular bilan bo'ladigan muomalada ta'sir ko'rsatadi. U har bir bolani diqqat bilan o'rganishi, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik nazokatini namoyon qilishi, bolalarning xulq-atvorini, ish natijalarini haqqoniy baholashi kerak, ularga o'z vaqtida yordam ko'rsata olishi, oiladagi ahvoli bilan qiziqishi zarur. Hozirgi zamon tarbiyachisining asosiy fazilatlaridan biri o'z kasbiga sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodliligi, o'z kasbini sevishi va bu kasbga

¹ Bolalar nutqini o'stirish nazariyasi va texnologiyalari fanidan o'quv – uslubiy majmua Guliston davlat universiteti Maktabgacha ta'lim kafedra 2021-yil

bo'lgan cheksiz sadoqati bilan o'qituvchi – tarbiyachi boshqa kasb egalaridan ajralib turadi. Pedagog – tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o'z predmetini, uning metodikasini chukur o'zlashtirgan bo'lishi zarur.¹ Predmeti va uning nazariyasini chuqur bilishi, bolalarni bilishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi. Bu pedagog – tarbiyachining obro'sini oshiradi. Bolalarni sevish, ularning hayoti bilan qiziqish, har bir shaxsni xurmat qilish tarbiyachi kasbiga xos bo'lgan muhim fazilatlardan, talablaridan hisoblanadi. Bolalar bilan ishlash orqali pedagog-tarbiyachi quyidagilarga e'tiborini qaratishi lozim:

- ❖ ona tilining barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, nutqdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish;
- ❖ aniq, tushunarli nutqqa, ya'ni yaxshi diktsiyaga ega bo'lish;
- ❖ o'z nutqida adabiy talaffuzlardan foydalanish, ya'ni orfoepik qoidalarga rioya qilish;
- ❖ ifodalilikning intonatsion vositalaridan bildirilgan fikrlarni hisobga olgan holda to'g'ri foydalanishga intilish;
- ❖ bolalar bilan muloqotda biroz sekinlashtirilgan sur'atda, ovozni sal pasaytirgan holda nutq so'zlash;
- ❖ matnlar mazmunini so'zlar va grammatik tuzilmalardan foydalangan holda ravon hamda imkonli shaklda hikoya qilish va bolalarga yetkazish;
- ❖ bolalar va xodimlar bilan suhbatda ovozni balandlatish va qo'pol muomalaga yo'l qo'ymaslik.

Nutqning to'g'riligi uning adabiy til normalariga mosligidir. Adabiy til normalari ko'p tarmoqli bo'lgan uchun nutqning to'g'riligi ham bir qancha shartlarni o'zida qamraydi. To'g'ri nutq o'zida adabiy tilning fonetik talaffuz, lug'ayviy so'z yasalishi, grammatik (morfologik, sintaktik), uslubiy normalarini mujassamlashtirilgan bo'lishi lozim. Bularning birortasidan biroz chetlashgan nutq ham to'g'ri bo'la olmaydi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib quyidagi xulosalarni bildiramiz: Tarbiyachining nutqi – bu bolalar ona tili va madaniy nutq namunalarini o'zlashtirib oladigan asosiy manba hisoblanadi. Bolalar bog'chasi tarbiyachisi uchun namunali nutqqa ega bo'lish – bu uning kasbiy tayyorlik darajasidir. Nutqni takomillashtirish haqida qayg'urish – har bir

¹ Bolalar nutqini o'stirish nazariyasi va texnologiyalari fanidan o'quv – uslubiy majmua Guliston davlat universiteti Maktabgacha ta'lim kafedrası 2021-yil

pedagogning axloqiy va ijtimoiy burchidir.¹ Bolani sevgan butun kuch va bilimni bolalarni kelajagi buyuk vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan odamgina haqiqiy tarbiyachi pedagog bo‘la oladi. Bolaga befarq, uning kelajagi bilan qiziqmaydigan, tarbiyachilik kasbiga loqayd odam haqiqiy pedagog – tarbiyachi bo‘la olmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-sonli qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli qarori
3. M.Berdiyeva Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda nutq o‘stirish mashg‘ulotlari orqali bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishning samarali usullari "Science and Education" Scientific Journal-2021
4. Bolalar nutqini o‘stirish nazariyasi va texnologiyalari fanidan o‘quv – uslubiy majmua Guliston davlat universiteti Maktabgacha ta’lim kafedrasida 2021-yil
5. F.R.Qodirova. Nutq o‘stirish metodikasi, Darslik, Toshkent-2015 yil

¹ F.R.Qodirova. Nutq o‘stirish metodikasi, Darslik, Toshkent-2015 yil